

BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINING AQLIY RIVOJLANISHIDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Eshpulatov Shakir Nabiyevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

sha385797@gmail.com

Toshtemirova Charos Alijon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Boshang'ich ta'lim yo'nalishi

4-bosqich talabasi charostoshtemirova9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada birinchi sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar va elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning o'quvchilarning bilish faolligi, mantiqiy fikrlashi, xotirasi va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim samaradorligini oshirishga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: birinchi sinf o'quvchilari, aqliy rivojlanish, innovatsion texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv ta'lim, mantiqiy fikrlash, ta'lim samaradorligi, multimedia vositalari, elektron ta'lim resurslari, raqamli pedagogika.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность инновационных технологий в умственном развитии первоклассников. Анализируется роль использования современных информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов и электронных образовательных ресурсов в образовательном процессе для развития у учащихся познавательной деятельности, логического мышления, памяти и навыков самостоятельного мышления. Также раскрывается влияние уроков, организованных на основе инновационных технологий, на повышение эффективности обучения.

Ключевые слова: первоклассники, умственное развитие, инновационные технологии, информационно-коммуникационные технологии, интерактивное обучение, логическое мышление, эффективность обучения, мультимедийные средства, электронные образовательные ресурсы, цифровая педагогика.

Abstract: This article highlights the importance of innovative technologies in the mental development of first-graders. The role of the use of modern information and communication technologies, interactive methods and electronic educational resources in the educational process in the development of students' cognitive activity, logical

thinking, memory and independent thinking skills is analyzed. The impact of lessons organized on the basis of innovative technologies on increasing educational efficiency is also revealed.

Keywords: first-graders, mental development, innovative technologies, information and communication technologies, interactive education, logical thinking, educational efficiency, multimedia tools, electronic educational resources, digital pedagogy.

Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning aqliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bizning mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6106-sonli farmonida mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarni tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur bilimlarini shakllantirish kabi ustuvor vazifalar ko'rsatib berildi [1]. Shu bilan birga birinchi sinflarda aqliy faoliyatini rivojlantirish maqsadida bir qancha usullar va metodlardan foydalaniladi. Innovatsion texnologiyalar darslarni qiziqarli va interfaol tashkil etish, o'quvchilarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularning aqliy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Birinchi sinf o'quvchilari uchun turli raqamli vositalar, interfaol metodlar va multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini yaxshilash bilan birga, bolalarning tafakkuri xotirasi, diqqati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayoniga interfaol usullarni qo'llash:

- o'quvchining muayyan nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirishiga;
- vaqtning tejalishiga;
- har bir o'quvchining faollikka undalishiga;
- o'quvchining erkin fikrlash layoqatining shakllanishiga;
- o'quvchida o'zgalarning fikrini tinglay olish ko'nikmasining hosil bo'lishiga;
- o'quvchining o'z fikrini himoya qila olishiga;
- o'quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko'nikmasining shakllanishiga olib keladi [2].

Innovatsion texnologiyalarni amalga oshirish interfaol metodlardan foydalanishni taqazo etadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'qituvchilar va o'quvchilar yordamida

va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarini ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtirishadi.

O'qitish jarayonining tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma-xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi [3].

Birinchi sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishida mantiqiy fikrlash alohida ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun mantiqiy o'yinlar, topishmoqlar, masalalar va boshqotirmalarni yechish, shaxmat o'ynash, kitob o'qish, tanqidiy fikrlashni o'rganish hamda munozaralarda ishtirok etish samarali usullar hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilar predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash, yangi faktlarni taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadilar. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan interaktiv topshiriqlar esa mantiqiy fikrlashni yanada rivojlantirib, o'quvchilarning aqliy faolligi, ijodkorligi va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois birinchi sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishida innovatsion texnologiyalar bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

Mantiqiy fikrlashni aniqlashning bir necha usullari mavjud: Birinchisi, bu tafakkur orqali dunyoni o'zlashtirib borishga qaratilgan murakkab bilim jarayoni; Ikkinchisi, doimiy ravishda yangi narsalarni, yangiliklarni qidirish va kashf etish. Fikrlash bu – insonda muammoli vaziyat vujudga kelgan vaqtdan boshlanadi va chuqurroq o'ylab javob berishni talab qiladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda birinchi sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, jumladan, interaktiv ta'lim vositalari, multimedia taqdimotlari, raqamli o'yinlar va elektron ta'lim resurslarining o'quvchilarning aqliy faolligiga ta'siri o'rganildi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning samaradorligi pedagogik kuzatish orqali tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik adabiyotlar o'rganilib, ulardagi nazariy qarashlar amaliy natijalar bilan taqqoslandi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, umumlashtirish metodi asosida xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotning metodologik asosini ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning aqliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga

qaratilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etdi. Natijada innovatsion texnologiyalarning birinchi sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishi, mantiqiy fikrlashi va o'quv motivatsiyasini oshirishdagi muhim o'rni aniqlandi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchi sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim pedagogik omil hisoblanadi. Dars jarayonlarida interaktiv doskalar, multimedia vositalari, ta'limiy o'yinlar va raqamli platformalardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni tezroq o'zlashtirishi, mantiqiy fikrlashi, mustaqil ishlashi hamda ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida olingan natijalarga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan muntazam foydalanishni yo'lga qo'yish;
2. O'qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish kurslarini kengaytirish;
3. Ta'lim jarayoniga yosh xususiyatlariga mos interaktiv elektron resurslar va ta'limiy o'yinlarni joriy etish;
4. Maktablarni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash va ulardan samarali foydalanish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
5. O'quvchilarning aqliy faolligini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarni dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash.

Xulosa

Innovatsion texnologiyalar birinchi sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishini ta'minlashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv dasturlar, multimedia vositalari va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash hamda mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'quv materiallarini tezroq o'zlashtirishiga, mustaqil fikrlashiga va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, mantiqiy o'yinlar, interaktiv topshiriqlar va raqamli ta'lim vositalari bolalarning aqliy faolligini oshirib, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ulardan maqsadli va samarali foydalanish hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa kelajakda intellektual salohiyati yuqori, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy bilimlarga ega yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ruslanovna, M. J. (2022). O'quvchi talabalar ijodiy fikrlash faolligini rivojlantirishda texnologiya ta'limining o'rnini va metodlari. Современное образование (Узбекистан), (7 (116)), 21-33.
2. Hayitov, A. I. (2021). Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. TDPU nashriyoti.
3. Anvarovna, A. D. Texnik oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini o'qitishning zamonaviy yo'llari. Kasb-hunar ta'limi jur. 124 bet.
4. Baxtiyorovna, E. S. Boshlang'ich sinflarda matematika fanidan og'zaki hisoblashda pedagogik texnologiyadan foydalanish. Перспективы развития научного прогресса в XXI веке и роль инноваций в этом процессе. часть-2, 50.
5. Vygotsky L.S. Pedagogik psixologiya va bolalar aqliy rivojlanishi nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 1991.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2023.